

MADANIYATLARARO MALAKANI BAHOLASHNING INNOVATIV YO‘LLARI

Umida Hikmatilla,
pedagogika fanlari doktori
AQSh, Bloomington shahri,
Indiana shtati Hikmat Learning
Solutions, LLC, CEO and Founder

Xorijiy tillarni o‘rganishdan asosiy maqsad o‘rganilayotgan tilda nafaqat so‘zlay yoki o‘qiy olish emas, balki muvaffaqiyatli muloqot qila olish va dunyoqarashni boyitishdir. Xorijiy tilda so‘zlashuvchilar kimga qachon, qayerda, qanday va nega nima deyishni bilishlari, o‘zlarining va boshqalarning qadriyatlari, xulq-atvori va nuqtai nazarini hurmat bilan muhokama qila olishlari lozim. Bunday madaniyatlararo malakaga ega talabalarni tayyorlash esa oson vazifa emas. Xorijiy tillarni o‘qitish kontekstida muvaffaqiyatli madaniyatlararo muloqot malakasini haqiqiy, inklyuziv va mazmunli til o‘rganish muhitini yaratish, tanqidiy fikr yuritish va turli hayotiy tajribaga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi farqli madaniy ma’nomlarni qadrlash imkoniyatlarini tashkil qilish deb ta’riflash mumkin.

Munozaralar va bahslar. Ushbu maqolada men xorijiy tillarni o‘qitishda madaniyatlararo malakani baholash atrofidagi murakkab manzarani ko‘rsatib berishga va bu masalaga nisbatan tanqid va keng muhokamalarga tadqiqot natijalari asosida javob berishga harakat qilaman. Ta’kidlash joizki, madaniyatlararo malakani baholash jarayonining murakkab tabiati o‘tkir munozarali bahslarning asosiy mavzusi bo‘lgan (Young & Sachdev, 2011). Xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha Amerika kengashi (ACTFL) tomonidan sinfda o‘rganilayotgan tildan 90% foydalanish tavsiya etilganligi sababli madaniyatni tanishtiruvchi, stereotiplarning oldini olishga qaratilgan dars rejalarini tuzish va yaratishda va ayniqsa, madaniyatlararo malakani baholashda qiyinchiliklar yuzaga keladi (Garrett-Rucks, 2016).

Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi oliy ta’lim maskanlarida odatda xorijiy tillar boshlang‘ich, o‘rta, yuqori bosqich va maxsus kurslarga bo‘lib o‘qitiladi. Ma’lumki, odatda til o‘qitishda asosan, to‘g‘ri so‘zlash, tinglash, yozish va o‘qish ko‘nikmalari baholanadi. Madaniyat esa, doimo orqa fonda qolib ketaveradi. Til darslarini o‘qitishda ko‘pgina hollarda yuzaki madaniyat, ya’ni ko‘zga ko‘rinadigan narsalar muhokama qilinadi va bu stereotiplarning rivojlanishiga olib keladi. Chuqur madaniy qarashlar haqida bahslashish, ularni kashf qilish uchun o‘qituvchining o‘zi ham chuqur madaniy bilimga ega bo‘lishi lozim. Bu holat bizga madaniyatni aysberg muzliklariga o‘xshatish tushunchasini eslatadi. Bu tushuncha 1976-yilda Edvard T.

birgalikda madaniyatlararo malakani targ‘ib qilishga yordam beradigan va o‘qituvchilarga darsni tashkillashtirishda yo‘l ko‘rsatadigan adaniyatlararo malaka mezonlarini ham sihlab chiqdi va bu mezonlar qisman bo‘lsa-da, o‘qituvchilarga ta‘limni tashkillashtirishga yordam bermoqda.

Madaniyatlararo muloqot malakasining ahamiyati

Globalashuv davrida turli madaniyatlar umumiy manba va qadriyat sifatida qaralmoqda. Bugungi raqamli asrda biz ma‘lumotni tezda topadigan va ma‘lumotlarni almashishga qodir bo‘lgan yangi avlod bilan yuzma-yuz turibmiz. Ular turli madaniyatlar birlashadigan makonda Internetdan foydalanadilar. Bundan tashqari, biz o‘z jamoalarimizda turli xil o‘ziga xosliklarga duch kelamiz. Madaniyatlararo muloqot qobiliyatlari keyingi avlodni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan 10 ta malaka reytingida 4-o‘rinni egallaydi.

Mening tadqiqotim AQShda kam sonda o‘qitiladigan xorijiy til sinflarida madaniyatlararo muloqot uchun yuqori ta‘sirga ega bo‘lgan amaliyotlarni (Kuh, 2008) o‘rganib chiqishni ham qamrab oladi. Bu amaliyotlar akademik samaradorlikni oshirishga, tanqidiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga va talabalarning faolligini oshirishga olib keladi. Ushbu amaliyotlar, shuningdek, jamoa tuyg‘usini rivojlantiradi, talabalarni kelajakdagi muammoli holatlarga tayyorlaydi, birgalikda ta‘lim olish va real hayotda qo‘llash kabi imkoniyatlarni yaratadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich darajadagi talabalar uchun loyihaga asoslangan va amaliy yondoshuv amaliyotlari ajoyib imkoniyatlarni va‘da qiladi. Shuningdek, jamoatchilik ishtirokidagi, san‘atga asoslangan, o‘yinga asoslangan ta‘lim, loyihalar asosidagi ta‘lim, norasmiy ta‘lim faoliyatlari madaniyatlararo ta‘lim va haqiqiy muloqot uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Xo‘sh, madaniy bilim egallanganligini qanday aniqlash mumkin? Baholash aslida bilimning rivojlanishni kuzatish, muvaffaqiyatlarni nishonlash, ta‘lim davomida olingan bilimlardagi kamchiliklarni tuzatish yoki to‘ldirish kerak bo‘lgan sohalarni aniqlash, innovatsiya madaniyatini tarbiyalash, va nihoyat, talabalarning fikr-mulohazalarini aniqlash uchun xizmat qilishi lozim. Ushbu tadqiqotda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha uzoq yillik tajribaga ega bo‘lgan to‘qqizta o‘qituvchini intervyu qilish orqali ularning tajribalari o‘rganib chiqilgan va natijalar tahlil qilingan. Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi: yuqorida aytib o‘tilgan muammolarni hal qilish uchun ijodiy, tanqidiy yondoshuv va innovatsion texnologiyalar baholash uchun bir qator variantlarni taklif qiladi. Talabalarning madaniy qarashlari haqida ma‘lumot beruvchi electron portfellar, multimediya loyihalari, blog postlari, onlayn munozaralar o‘qituvchipedagoglar uchun qulay yechimlarni taqdim etadi va tadqiqotchilar uchun

ham muammolar va istiqbolli yechimlarni yoritish bo'yicha qimmatli tushunchalarni beradi. Quyida olingan intervyular asosida madaniyatlararo muloqot malakasini targ'ib qilish va baholashning ijodiy va innovativ ko'rinishlari qisqacha bayon qilib beriladi.

Madaniyatlararo muloqot malakasini baholash yo'llari

Loyihaga asoslangan ta'lim (project-based learning) madaniyatlararo muloqot malakasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun xorijiy til o'qituvchilari loyihalarni boshqaruvchi rolini bajarishlari, talabaga loyihani yaratish, loyihaga qo'yilgan talablarni puxta ishlab chiqishlari lozim bo'ladi. Namuna sifatida "Men haqimda" nomli elektron kitob yozish, universitetda xalqaro bilimlarni olish uchun manbalar haqida video tayyorlash, Vikipediya loyihasi kabilarni sanab o'tish mumkin. Bunday loyihalarning ko'pchiligi yakuniy kurs loyihasi sifatida beriladi va semestr davomida talabalar ularni bajarib boradilar. Sahna tomoshalari ham loyihalarning bir ko'rinishi hisoblanadi. Bunday ta'lim (performative teaching) hamkorlikda loyihalar tayyorlash uchun qulay va muvaffaqiyatli yo'l hisoblanadi. Bunda talabalar biror tadbir uchun birgalikda kuylashlari, she'rxonlik kechasi uyushtirishlari, karaokedan foydalanishlari, kichik sahna ko'rinishlari uchun ssenariy yaratishlari, sahnada rol o'ynashlari, raqs tushishlari va hu orqali yangi madaniyatni, san'at va tana tilini ham kashf qilishlari mumkin bo'ladi.

O'yinga asoslangan o'qitish (game-based learning) ham hamkorlikda loyihalar yaratish uchun katta fursat beradi. Milliy o'yin dizayni, interaktiv musobaqalar, stol ustidagi o'yinlar, sport o'yinlari, ularni kuzatish va muhokama qilish ham haqiqiy madaniy ma'lumotlar olish va o'rtoqlashish uchun tabiiy muhit yaratadi.

Jamoatchilik ishtirokida o'qitish (community-based teaching) ham samarali usullardan bo'lib, turli madaniyatga ega bo'lgan insonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish uchun imkon beradi. Bu global ta'limning bir ko'rinishi bo'lib, talabalarga ko'ngilli ravishda turli madaniyat markazlarida xizmat qilish, turli tilda so'zlashuvchi oilalarga tashrif buyurish, ular bilan birga taom tayyorlash, hattoki, dinlararo muloqot qilish orqali o'z madaniyatlari haqida o'ylash, uni boshqa madaniyatlarga qiyoslash va eng muhimi, chuqur bilimlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Vazifalarga asoslangan tilni o'rgatish (task-based language teaching) kundalik til ta'limining ajramas qismidir. Bunda talabalar interaktiv taqdimotlar qilish, onlayn sayohatlar uyushtirish, intervyular olish, onlayn kundalik daftarlar

tutish, bloglar yozish, fanlararo tadqiqotlar olib borish kabi vazifalar orqali madaniy bi’lim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

San’atga asoslangan ta’lim (art-based learning) ham madaniy bilimlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. San’at asarlari bilan tanishish, rasmlar va ularni yaratga insonlar hayoti va taqdirini muhokama qilish, muzeylarga jonli yoki onlayn shaklda tashrif buyurish, rassomlarning sahxiy veb-sahifalari bilan tanishish orqali talabalar haqiqiy ma’lumot olish imkoniga ega bo‘ladilar. Norasmiy ta’lim (informal learning) barcha bosqichdagi talabalar uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Qahva stoli tashkil qilib birgalikda suhbatlar uyushtirish, xorijiy tilda so‘zlovchi olimlarni tadbirga taklif qilish, milliy taomlarni tatib ko‘rish, pishirish, til festivallari uyushtirish, xalqaro ona tili kunini nishonlash, turli to‘garaklarda qatnashish kabilar ham madaniyatni his qilish va uni tushunishga harakat qilish uchun sharoit yaratadi.

Xizmat ko‘rsatishga asoslangan ta’lim (service-based learning) orqali ham kuchli va ma’noli loyihalarni amalga oshirish mumkin. Biron tashkilotga xorijiy materiallarni tarjima qilishga yordam berish, bolalar yoki kattalar uchun til dasturlari tashkil qilish, biron xorijiy tilda konferentsiya tashkil qilish, til dasturini targ‘ib qilish uchun afisha yoki video yaratish, atrof-nuhitni himoya qilishga qaratilgan videolar tayyorlash, energiya manbaini tejash bo‘yicha mulohazalar yozish kabilar ana shunday loyihalar sirasiga kiradi. Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo muloqot malakasini rivojlantirish uchun muhit yaratish va tarbiyalashda xorijiy til o‘qituvchilari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Madaniyatlararo pedagogika chet tilini o‘rgatish va o‘rganishda o‘qitish mazmuni, o‘quv muhiti, jarayon va o‘qituvchi shaxsini ham qamrab oladi. Madaniyatlararo pedagogika sog‘lom hamjamiyatni yaratishga va turli xil o‘quvchilarni ma’lum bir maqsad bilan boshqarishga qaratilgan bo‘lib, bu yerda madaniyat "o‘zgarish uchun manba va kuch" bo‘lib xizmat qiladi (Sorrells, 2020). Kohn (2018) taklif qilganidek, til sinfidagi o‘qituvchining roli o‘quvchilarga o‘zlarining ijtimoiy-konstruktivistik til repertuarini yaratish, voqelik haqidagi tushunchalarini rivojlantirish va chet tilidagi muloqot muvaffaqiyatlari haqida fikr yuritish imkonini berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon, UK: Multilingual Matters.
2. Byram, M. (2015). *Culture in foreign language learning. The implications for teachers and teacher training. Culture and foreign language education: Insights*

- from research and implications for the practice*, 10, 37-58.
<https://doi.org/10.1515/9781501503023-003>
3. Byram, M. (2021). Teaching and assessing intercultural communicative competence: Revisited. *Multilingual Matters*.
<https://doi.org/10.21832/9781800410251>
 4. Dervin, F. (2010). Assessing intercultural competence in language learning and teaching: A critical review of current efforts. *New approaches to assessment in higher education*, 5, 155-172.
 5. Garrett-Rucks, P. (2016). *Intercultural competence in instructed language learning: Bridging theory and practice*. IAP.
 6. Hall, E. T. (1976). *Beyond culture*. Anchor. Hikmatilla, U. (2024). Intercultural pedagogy in less commonly taught language classrooms: teacher perceptions and practices. Doctoral dissertation. Indiana University Scholar Works. Kohn, K. (2020). Foreign language teaching from a pedagogical lingua franca perspective. *Status Quaestionis*, (19), 55-72.
 7. Kramsch, C. (2014). Language and culture. *AILA Review*, 27(1), 30-55.
<https://doi.org/10.1075/aila.27.02kra>
 8. Kuh, G.D. (2008). High-impact educational practices: What they are, who has access to them, and why they matter. Washington DC: Association of American Colleges and Universities.
 9. Sorrells, K. (2020). Social justice, diversity, and intercultural–global citizenship education in the global context. In *The Routledge Handbook of Language and Intercultural Communication* (pp. 376-394). Routledge.
 10. Young, T. J., & Sachdev, I. (2011). Intercultural communicative competence: Exploring English language teachers' beliefs and practices. *Language Awareness*, 20(2), 81-98. <https://doi.org/10.1080/09658416.2010.540328>